

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quadrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karievva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёрров Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	347
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
STRATEGIC DIRECTIONS FOR INCREASING CAPITAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS: DIGITALIZATION AND RISK MANAGEMENT INTEGRATION	352
Sadullaeva Mokhinur Aziz kizi	
TECHNOLOGY MANAGEMENT AND SME INTERNATIONALIZATION: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	358
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH MEZONLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	363
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
SMART UNIVERSITET KONSEPSIYASI ASOSIDA REYTING VA RAQOBATBARDOSHLIKNI INTEGRAL BOSHQARISH	371
Xudoyqulov Husen Ahadovich	



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY VA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT 1-SHAKLINING QIYOSIY TAHLILI	379
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA NAZARIY QARASHLAR	384
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	389
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	397
P.SH.Usmonov	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ИНВЕСТИЦИОННОГО АНАЛИЗА ДЛЯ ОЦЕНКИ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	401
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA KORPORATIV MADANIYAT, AXLOQIY-RUHIY VA MA'NAVIY MUHITNING O'RNI	407
Suyunov Dilmurod Xolmurodovich, Qodirov Tuyg'un Uzoqovich	
ELEKTRON PULLARNING MOHIYATI VA ULARNING MILLIY TO'LOV TIZIMIDAGI ROLI.....	416
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA UY XO'JALIKLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KENGAYTIRISH.	423
Eshbaeva Shahnova Faxriddinovna	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE	428
Musayeva Shaira Azimovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XORIJIY Tajriba Hamda Uni O'zbekistonda QO'LLASH SAMARADORLIGI.....	435
Bozorova Ozoda Raximovna	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI IMIJINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI: QIYOSIY TAHLIL.....	439
Bekmurodov Navruz Ergashevich	
TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA YARATILGAN YALPI QO'SHILGAN QIYMAT DINAMIKASI VA UNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	449
O'rinov Komiljon Kozimovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHNING MINTAQAVIY OMILLARI.....	453
Salomat Norova	
QURILISH MATERIALLARI BOZORI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	459
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	



QURILISH MATERIALLARI BOZORI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li

Namangan davlat-texnika universiteti
“Marketing” kafedrasasi assistenti, PhD
ORCID: 0009-0009-0648-7984

Annotatsiya. Maqolada qurilish materiallarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan, bozorlarni tasniflash belgilari va turlari, qurilish materiallari bozori subyektlari o'rtasidagi munosabatlar va munosabatlarning xarakterini belgilovchi bozorning xarakterli belgilari sifatida tushuniladigan tuzilma — qurilish materiallari bozorining asosiy xususiyatlari o'rganib chiqilgan. Qurilish materiallari bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Hududlarda qurilish materiallari bozorini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari, qurilish materiallari bozori, qurilish materiallari sanoati, qurilish ishlari.

Abstract. The article examines the distinctive characteristics of construction materials, criteria and types for classifying markets. The structure of the construction materials market – understood as the characteristic features of the market that define the relationships and the nature of those relationships between market participants – has been examined. Factors influencing the development of the construction materials market have been studied. Recommendations for the development of the construction materials market in the regions have been developed.

Key words: building materials, building materials market, building materials industry, construction works.

Аннотация. В статье рассматриваются отличительные характеристики строительных материалов, критерии и типы классификации рынков. Рассмотрена структура рынка строительных материалов – понимаемая как характерные особенности рынка, определяющие взаимоотношения и характер этих взаимоотношений между участниками рынка. Исследованы факторы, влияющие на развитие рынка строительных материалов. Разработаны рекомендации по развитию рынка строительных материалов в регионах.

Ключевые слова: строительные материалы, рынок строительных материалов, строительная промышленность, строительные работы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda qurilish ishlari ko'lamini sezilarli darajada oshdi. Bularning barchasini real vaqt rejimida hamma joyda kuzatyapmiz: turar-joy majmualari va magistral yo'llar, sanoat gigantlari va ijtimoiy obyektlar — hamma yerda ishlar qizg'in davom etmoqda, O'zbekistonni ko'z o'ngimizda yanada zamonaviy va rivojlangan davlatga aylantirmoqda. Qurilish mamlakat iqtisodiyotining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, u yangilarini ishga tushirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini rekonstruktsiya qilish, kengaytirish, ta'mirlash va texnik qayta jihozlash uchun mo'ljallangandir. Qurilish o'zida har qanday davlat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasini bevosita aks ettiradi.

Ushbu soha madaniyat va millatning iqtisodiy o'sishga intilishini tavsiflaydi. Qurilish sanoatining hal qiluvchi roli mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Tabiiyki, katta



hajmdagi qurilish ishlari nafaqat katta hajmdagi uskunalar va mutaxassislarni talab qiladi. Qurilish materiallari sohaning asosiy bo'g'inidir. Shu bois mamlakatimizda yangi turdagi sifatli, zamonaviy, energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib, marketing tadqiqotlari olib borilmoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati yuksalishi bilan qurilish materiallariga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy qurilish ilmiy-texnika bazasining yuqori darajada rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa yangi samarali qurilish materiallarini o'zlashtirishning jadal o'sishini ta'minlaydi. Bu mehnat sharoitlarini sezilarli darajada osonlashtiradi va yaxshilaydi, uning xarajatlarini kamaytiradi hamda mahsulot tannarxini pasaytiradi. Assortiment qanchalik keng bo'lsa, qurilish materiallarining sifati yuqori va narxi qanchalik past bo'lsa, qurilish shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Qurilish muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun avvalo mamlakatda qurilish materiallari bozorini rivojlantirish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

«Qurilish materiallari bozori» tushunchasi Rossiyalik olim V.A. Jukov fikriga ko'ra, «...qurilish materiallari bozorini qurilish materiallari sanoati korxonalari (qurilish xom ashyosi, mahsulotlari va tuzilmalari) yakuniy mahsulotlarining aylanish sohasi bo'lib, ular doirasida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning uch turi shakllanadi: ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi raqobat munosabatlari; vositachilar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar»dan shakllanadi [1].

Bundan tashqari, I.S. Rafael tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: «Qurilish materiallari bozori — bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun maxsus sharoitlar, ishtirokchilarning o'ziga xos manfaatlari, individual infratuzilma bilan tavsiflangan munosabatlar tizimi bo'lib, uning doirasida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, vositachilar, atrofdagi bozor muhiti vakillarining manfaatlari qurilish materiallari va mahsulotlarini sotib olish va sotish bo'yicha, barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shakllangan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari muvofiqlashtiriladi» [2].

Qurilish materiallari bozori muammolarining metodologik-nazariy asoslari jahondagi yetuk olimlar Dj.S. Beyna, E.S. Meyson, F. Morrislar tomonidan o'rganilgan [3]. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish materiallari sanoati faoliyatining xususiyatlari, bozorining tarkibi va uning faoliyatidagi narx, sotish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tadqiq etishgan. Rossiya va boshqa MDH olimlaridan Izard U., Lavrov A.M., Nekrasov N.N., Novoselov A.S.lar tomonidan mintaqaviy qurilish materiallari bozorini rivojlanish masalalari tadqiq etilgan.

Qurilish materiallari bozorida talab va taklif tarkibidagi o'zgarishlar, qurilishning yangi texnologiyalarini joriy qilish, raqobatbardosh korxonalar va yangi mahsulotlarning bozorga kiritilishi, xorijiy firmalar bilan raqobat va boshqa munosabatlar Avdasheva S.B., Rozanov N.M., Vuros L.lar tomonidan tadqiq etilgan [4]. Qurilish mahsulotlari sifatini baholash muammolarini rus olimlaridan Feygenbaum A., Adler Y., Azgaldov G.G., Glichev A.V., Lapidus V.A., Livov D.S. va boshqalar o'rganishgan [5].

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida qurilish materiallari bozorini tizimli tadqiq etishga hali kirishilgani yo'q, ayniqsa, keyingi yillarda qurilish sohasi «drayver»ga aylanib rivojlanayotgani, qurilish sanoati faoliyatidagi yangiliklar, xizmatlari va materiallar savdosini takomillashtirish masalalari zamonaviy marketing metodologiyasi nazariyasi asosida tadqiq etish hozirgi o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari bozorini yashil marketing asosida rivojlantirish jarayonidagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon bozorlaridagi shiddatli raqobat muhitiga moslashish, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni, sotish va xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli olib borilmoqda. Qurilish materiallari sanoatini raqamlashtirish, savdo va xizmatlar elektron tizimini yaratish, sohada sun'iy intellekt tizimini joriy etish, qurilish materiallari savdosi va xizmatlarini jadal sur'atlarda rivojlantirish, soha korxonalari faoliyatini modernizatsiya qilish, ilm-fan yutuqlarini joriy etishga davlat tomonidan imtiyozlar berish, soliq yukini kamaytirish, eksport va import ishlari xarajatlarining bir qismini qoplab berish, mutaxassis kadrlarga bo'lgan talabni qondirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon



va qarorlarda mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, 5 mlrd AQSh dollarlik loyihalarni amalga oshirish orqali qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Yuqori qo'shilgan qiymatli qurilish materiallarini ishlab chiqarish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish, talab etilayotgan sifatli mahsulot ishlab chiqarish turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi va raqobatbardosh qurilish materiallari hamda mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash mazkur masalalarning ilmiy yechimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

Bozor (ingl. market) — insoniyatning tarixiy kashfiyoti bo'lib, u o'z taraqqiyotida iqtisodiy ahamiyati bilan birga odamlarning ma'naviy yuksalishiga ham ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Inson bozordagi savdo-sotiq orqali tovarlarni xarid qilish bilan mamlakat va jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va yangiliklardan bahramand bo'ladi, o'z mahorati va bilimini yanada oshirishga ilhomlanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy-texnika progressini rag'batlantiradi va takroran ishlab chiqarishni jadallashtirib, uning ixtisoslashishiga zamin yaratadi [6].

Hozirgi zamon bozori o'z taraqqiyotiga erishguncha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bir tomondan, bozorga davlat yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning juda xilma-xil shakllari va usullari yuzaga keldi, ikkinchi tomondan, bozorning o'zini o'zi boshqarishiga imkon beruvchi qonunlar va qoidalar tarkib topdi.

Biz bozor muhitini yangidan va qisqa fursatda shakllantirishimiz lozimki, buning uchun bozor munosabatlariga mos bo'lgan barcha vositalardan, eng yangi tajribalardan g'oyat samarali foydalanishimiz kerak. Hayotning o'zi bozor ilmini, qonunlari va tartiblarini har tomonlama va chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Zamonaviy marketing tamoyillarida bozorni o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bozorni o'rganishdan asosiy maqsad uning konyunkturasiga (holatiga) baho berish va rivojlanish istiqbolini ishlab chiqishdan iborat.

Bozorni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari, ulardagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni tadqiq etish va boshqarish bilan bog'liq munosabatlar «Marketing» — «Bozorshunoslik» fani obyekti va predmetini ifodalaydi. Mazkur fan asoschisi AQSh professori Filip Kotler bo'lib, hozir u tomonidan marketingning XXI asr konsepsiyalari: «Marketing 4 — raqamli marketing» va «Marketing 5 — sun'iy intellektlar marketingi» asoslangan.

Qurilish materiallari va mahsulotlarining tovar aylanmasi bozorda amalga oshiriladi. Bozorning hududiy chegaralari birinchi navbatda qurilish materiallari turiga bog'liq, chunki ko'pchilik qurilish materiallarini sotish uchun asosiy cheklov yuqori transport xarajatlari hisoblanadi. Shuning uchun asosiy qurilish materiallari bozorining chegaralari: g'isht, devor bloklari, yig'ma temir-beton konstruksiyalar ko'pincha kichik maydon — shahar, viloyat, mamlakatlarning qo'shni subyektlari chegaralari bilan belgilanadi. Kamroq xomashyo talab qiladigan yuqori texnologiyali materiallar bozori — bo'yoq, gidroizolyatsiya, issiqlik izolyatsiyasi va boshqalar kengroq chegaralarga ega.

Bozorni turli ko'rsatkichlarga ko'ra tasniflash mumkin. Quyidagi jadvalda bozorni tasniflash belgilari va bozor turlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Bozorlarni tasniflash belgilari va turlari [7]

Tasniflash belgilari	Bozor turlari
Iqtisodiyot darajalariga ko'ra	Makro bozorlar
	O'rta bozorlar
	Mahalliy bozorlar
Mahalliyashtirish darajasiga ko'ra	Tashqi
	Ichki
Hududiy norezidentlarning kirish darajasiga ko'ra	Ochiq
	Yopiq
Rivojlanish darajasi bo'yicha	Yuksak
	O'sib borayotgan
	Yetuk
	So'nayotgan
Hududiy-geografik xususiyatlari bo'yicha	Xalqaro
	Mintaqaviy
	Mahalliy



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha	Davlat
	Xususiy
Faoliyat sohalari bo'yicha	Sanoat
	Xizmat
	Qimmatbaho qog'ozlar
	Ko'chmas mulk
	Uy-joy va kommunal
Sanoat bo'yicha	Qurilish
	Mashinasozlik
	Kimyoviy
	Oziq-ovqat (oziq-ovqat mahsulotlari)
	Neft va gaz
	Metallurgiya
	Yoqilg'i va energiya
	Yengil sanoat mahsulotlari
Mahsulot turi bo'yicha	Qurilish materiallari bozori
	Mashina va transport vositalari bozori
	Neft bozori
	Gaz bozori
	Oziq-ovqat bozori (turi bo'yicha)

Bozorlarni tasniflashda mahsulot turiga ko'ra bozor turlarga ajratilganda eng yiriklaridan biri bu qurilish materiallari bozoridir. Qurilish materiallari bozori murakkab ko'p bo'g'inli tizim bo'lib, uning asosiy elementlari qurilish materiallari va mahsulotlarining o'ziga xos turlari bilan ifodalanadi. Har bir material tashqi ko'rinishi, tarkibi va sifat ko'rsatkichlari bilan farqlanadi. Amaldagi xom ashyoning turi va tarkibiga, uni qayta ishlash texnologiyasiga qarab qurilishda funksional maqsadi bilan farq qiluvchi ko'plab qurilish materiallari va buyumlari yaratiladi. Katta xilma-xillikka qaramay, qurilish materiallari ham umumiy xususiyatlarga ega.

Mintaqaviy bozorlarni o'rganish tizimli yondashuvdan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak, unga ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot mintaqaviy bozor subyektlarining ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish sohaslarida o'zaro ta'sir qilish tizimi sifatida qaraladi. Tahlil bozorda faoliyat yurituvchi subyektlar doirasini, bozor jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni, mintaqaviy bozor ta'sir doiralari hududiy chegaralarini, bozor infratuzilmasining roli va rivojlanish darajasini, davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Bino va inshootlarni qurish xarajatlari tarkibida qurilish materiallari va buyumlari tannarxning 50–60 % va undan ortig'ini tashkil qiladi. Qurilish materiallari va mahsulotlari tannarxini pasaytirish bilan bir vaqtda ularning sifatini oshirish bugungi kunda hududlardagi qurilish tashkilotlarining ehtiyojlarini qondirish, uy-joy tannarxini pasaytirish va uy-joy muammosini hal etishning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

«Qurilish materiallari bozori» tushunchasi Rossiyalik olim V.A. Jukov fikriga ko'ra «...qurilish materiallari bozorini qurilish materiallari sanoati korxonalari (qurilish xom ashyosi, mahsulotlari va tuzilmalari) yakuniy mahsulotlarining aylanish sohasi bo'lib, ular doirasida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning uch turi shakllanadi: ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi raqobat munosabatlari; vositachilar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar»dan shakllanadi. Bundan tashqari, I.S. Rafael tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: «Qurilish materiallari bozori — bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun maxsus sharoitlar, ishtirokchilarning o'ziga xos manfaatlari, individual infratuzilma bilan tavsiflangan munosabatlar tizimi bo'lib, uning doirasida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, vositachilar, atrofdagi bozor muhiti vakillarining manfaatlari qurilish materiallari va mahsulotlarini sotib olish va sotish bo'yicha, barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shakllangan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari muvofiqlashtiriladi».

Tizim sifatida qurilish materiallari bozori ma'lum tuzilishga ega bo'lgan va tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan subyektlar va obyektlarning o'zaro bog'liq elementlarining yaxlit majmuasidir. Qurilish materiallari bozori subyektlari o'rtasidagi munosabatlar va munosabatlarning xarakterini belgilovchi bozorning xarakterli belgilari sifatida tushuniladigan tuzilma — qurilish materiallari bozorining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning soni va hajmi, turli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan qurilish xom ashyosi, materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari o'rtasidagi o'xshashlik yoki farq darajasi, muayyan bozorga kirish va undan chiqish qulayligi, bozor ma'lumotlarining mavjudligi,



mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish, qurilish materiallari sanoatining mahalliy korxonalari uchun ichki bozor marketingining ustuvorligi.

Qurilish materiallari bozorining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ ma'lum turdagi va sifatdagi nisbatan bir xil tovarlar;
- ✓ tovarning uzoq muddat xizmat qilishi;
- ✓ tovar sifatiga va sertifikatlashtirishga qo'yiladigan o'ziga xos talablar;
- ✓ bozor subyektlarining nisbatan kichik soni (iste'mol bozoriga nisbatan), buning natijasida mintaqaviy bozorlarda qurilish materiallarining ayrim mahsulot guruhlari uchun monopoliya va oligopolyalar paydo bo'ladi;
- ✓ yuqori transport xarajatlari va asosiy qurilish materiallari va mahsulotlarining nisbatan yopiq bozori (g'isht, yig'ma beton, metall bo'lmagan materiallar, devor bloklari);
- ✓ maxsus infratuzilma — sotuvchilar, tartibga soluvchilar va nazorat qiluvchi organlar.

Qurilish materiallari bozorini o'rganishda uning xususiyatlarini aks ettiruvchi, uni o'rganish va tasniflash imkonini beruvchi turli ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi. Bozor tarkibini tavsiflovchi alohida ajratilgan miqdoriy ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- qurilish materiallarining ushbu tovar bozorida faoliyat yurituvchi sotuvchilar soni;
- ushbu qurilish materiallari bozorida sotuvchilar egallagan ulushlar;
- bozor konsentratsiyasi ko'rsatkichlari;
- qurilish materiallari bozorida korxonalar tovar aylanmasi, mehnatda band bo'lganlar, kapital va foyda miqdori.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bozorni taqsimlashning boshqa mezonlari qo'llaniladi:

- ✓ narx o'zgarganda daromadning o'zgarish ko'rsatkichi (to'g'ridan-to'g'ri narxlarning egiluvchanligi ko'rsatkichi prinsipi asosida — bozor chegaralariga narx nuqtalarining uzoq vaqt davomida ko'tarilishi bilan ishlab chiqaruvchi firmalarning daromadlari va foydalari dinamikasi);
- ✓ tovarlar narxlarining vaqt bo'yicha o'zaro bog'liqligi (baholarning o'zaro egiluvchanligi konsepsiyasiga asoslanib — uzoq vaqt davomida (5–10 yil) tovarlar narxlari harakatining ijobiy korrelyatsiyasi tovarlarning barqaror o'rinbosar ekanligini ko'rsatadi, ya'ni ular bitta bozorni tashkil qiladi);
- ✓ bozorning geografik chegaralanishi (turli hududlarning bir geografik bozorga mansubligi mezoni raqobatning bir xil shartlaridir).

Qurilish materiallarini iste'mol qiluvchi subyektlar — ma'lum bir iqtisodiyotning rezidentlari va norezidentlari, ma'lum bir bozor, yuridik va jismoniy shaxslar qurilish materiallari bozori tarkibini talabga muvofiq belgilaydilar.

Qurilish materiallari bozorining obyekti qurilish materiallari sanoati korxonalarining mahsulotlari — bino va inshootlarni qurishda, shuningdek ularni rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, tiklashda foydalaniladigan qurilish materiallari va xom ashyolari, buyumlari va yig'ma konstruksiyalari hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ushbu materiallarning o'ziga xos tuzilishi va aslida qurilish materiallari bozorining obyekti tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan ta'rifida ushbu bozorning tarkibini taklif bilan belgilaydi.

Boshqa har qanday bozorda bo'lgani kabi, qurilish materiallari bozorida ham barcha subyektlarning o'zaro ta'siri talab va taklif hajmini belgilaydi.

Qurilish materiallari bozorida taklif — bu hududiy qurilish materiallari sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qurilish materiallari va chetdan olib kelingan qurilish materiallarining ma'lum vaqt davomida muomalada bo'lgan umumiy hajmidir.

Qurilish materiallari bozorida talab esa bu qurilish tashkilotlari va boshqa iste'molchilarning ham hududiy, ham mamlakatning boshqa subyektlaridan qurilish materiallariga bo'lgan umumiy ehtiyojining mablag' bilan ta'minlangan qismidir. Qurilish materiallari bozorida talab ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari bozordagi taklifga ta'sir qiladi. Sanoat va infratuzilma omillari qurilish materiallari sanoatining tuzilishini, korxonalar sonini va ularning joylashishini belgilaydi. Ijtimoiy, sanoat va infratuzilma omillarining kombinatsiyasi talab va taklif egri chiziqlarini shakllantiradi va oxir-oqibat qurilish materiallari bozorida zanjirlarni belgilaydi.

Tovar aylanmasi jarayonlarini tashkil etish tamoyiliga ko'ra, qurilish materiallarining hududiy bozori ochiq va yopiq bo'lishi mumkin. Ochiq bozor mintaqalararo bozor hisoblanadi. Ochiq bozor erkin savdo, vositachilik tashkilotlari orqali sotish yoki milliy va jahon bozorining har qanday subyektlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bitimlar orqali amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Yopiq bozor mintaqa ichidagi bo'lib, u qurilish materiallari va mahsulotlarining erkin savdosiga to'sqinlik qiluvchi turli xil to'siqlarning (hududiy, ma'muriy va boshqalar) mavjudligi bilan tavsiflanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tizim sifatida qurilish materiallari bozori ma'lum tuzilishga ega bo'lgan va tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan subyektlar va obyektlarning o'zaro bog'liq elementlarining yaxlit majmuasidir. Qurilish materiallari



bozori subyektlari o'rtasidagi munosabatlar va munosabatlarning xarakterini belgilovchi bozorning xarakterli belgilari sifatida tushuniladigan tuzilma — qurilish materiallari bozorining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning soni va hajmi, turli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan qurilish xom ashyosi, materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari o'rtasidagi o'xshashlik yoki farq darajasi, muayyan bozorga kirish va undan chiqish qulayligi, bozor ma'lumotlarining mavjudligi, mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish, qurilish materiallari sanoatining mahalliy korxonalari uchun ichki bozor marketingining ustuvorligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. В.А.Жуков. Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс. кан. эко. наук. Волгоград-2005 г
2. И.С.Рафаель "Управление ассортиментным предложением предприятия на основе маркетингового подхода" Автореферат кан. экон. наук Оренбург-2010
3. Моррис. Д. Теория организации промышленности / Д. Моррис, 1999. - 589 с.;
4. Авдашева С.Б. Анализ структур товарных рынков: экономическая теория и практика России / СБ. Авдашева, Н.М. Розанова. - М.: Экон. Фак.МГУ ТЕИС,
5. 1998.-133С.; Розанова Н.М. Квazиконкурентные рынки-реальность российской экономики/ Н.М.Розанов, С.Б. Андашев// Вести. МГУ, Сер.6. Экономика. -1998 г.;
6. Вурос Л. Экономика отраслевых рынков / Л. Вурос, Н. Розанова. - М.: МГУ, 2000.-312 с.;
7. Фейгенбаум А. Контроль качества продукции: Сокр. пер. с англ. /Авт. предисл. и науч. ред. А.В. Гличев. - М.: Экономика, 1986. -471 с.;
8. Адлер Ю., Моховикова Л. Должна ли страна быть бедной? — Тольятти, 1998.; Азгальдов Г.Г.Квалиметрия в архитектурно-строительном проектировании.-М., 1989.;
9. Гличев А.В., Панов В.Г., Азгальдов Г.Г. Что такое качество? - М., 1968.; Лapidус В.А.Всеобщее качество (TQM) в российских компаниях. / Гос.ун-т управления; Нац.фонд подготовки кадров. - М.: ОЛО «Типография «Новости», 2000.-432 с.;
10. Львов Д.С. Экономика качества продукции. — М. 1972.;
11. Soliyev A., Buzrukxonov S. "Marketing" darslik, Toshkent "Iqtisodiyot – Moliya" 2010 yil 3-b
12. Z.V. Usubjonov "Qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi 19-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>